



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 440-445 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHHLARI



**Kurbanov Jasurbek Pozilovich**

Alfraganus universiteti Iqtisodiyot kafedrasи dotsenti v.b.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini ta'minlarning ustuvor yo'naliishlari Andijon viloyati kichik biznes korxonalari misolida ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** korelyatsiya, regressiya, YaXM, ishlab chiqarish, omillar, diversifikatsiya, bandlik, mehnat unumidorligi

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются и анализируются приоритеты обеспечения экономической устойчивости малого бизнеса на примере предприятий малого бизнеса Андиканской области.

**Ключевые слова:** корреляция, регрессия, ВВП, производство, факторы, диверсификация, занятость, производительность труда.

Kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda birinchi navbatda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratamiz. Mazkur ko'rsatkichlar ichida birinchi navbatda e'tiborni ishlab chiqarish hajmining o'sishiga qaratamiz. Ushbu kattalikni real hajmini oshirish va uning tarkibini diversifikatsiyalash muhimdir. Bunda, birinchi navbatda umumlashtiruvchi kattalik kichik biznesning YaHMdagi ulushini oshirish imkoniyatlarini baholaymiz. Chunki, mazkur kattalik o'z navbatida barqarorlikning asosiy mezoni hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, iqtisodiy barqarorlik birligina miqdoriy o'zgarishlarnigina qamrab olmaydi, balki, ularning ijobjiy o'zgarishi hamda samaradorlik jixatlari ortishini ham o'z ichiga oladi. Samaradorlikni baholashda ikki mezonti tahlil qilamiz. Ular, sifat va miqdor ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shunga muvofiq, kichik biznesning samaradorlik mezontarini oshirish masalalariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Kichik biznesning YaHMdagi ulushini omilli tahlil qilishda unga kuchli bog'liq manbalarini aniqlaymiz. Buning uchun korrelyatsion tahlillarni amalga oshiramiz.

Amalga oshirilgan tahlil natijalarini ko'rsatishicha, kichik biznesning YaHMdagi ulushiga sanoat (0,56), qishloq xo'jaligi (0,65), xizmatlar sohasi (0,54) o'rtacha bog'liqlikka ega bo'lgan. Kapital qo'yilmalar (0,75), qurilish tarmog'i (0,76), chakana savdo (0,91), yuk tashish (0,86), yo'lovchi tashish (0,98), eksport (0,87), import (0,95), aholi bandligi (0,86) bo'yicha kichik biznesning ulushlari kuchli bog'liqlikni aks ettirgan (1-jadval).

Yuqoridagi korrelyatsion koeffitsientlarga asoslanib, YaHMdagi kichik biznesning ulushini o'zgarishini ta'minlovchi manbalarni baholaymiz. Ya'ni, kuchli bog'liqlikdagi omillarga asoslanib regression tahlilni amalga oshiramiz. Tadqiqotimizni ikki yo'naliishda

olib boramiz. Jumladan, kichik biznesning YaHMdagi ulushiga ishlab chiqarish resurslari ta'sirini hamda tarmoqlarning hissasini alohida aniqlaymiz.

1-jadval

**Andijon viloyatida kichik biznesning YaHMdagi ulushiga sohaning tarmoqlardagi hissasi o'rtaqidagi korrelyatsion bog'liqlik natijalari<sup>1</sup>**

Ko'rsatki chlar nomi	Kichik biznesni ng YaHMd agi ulushi	Kichik biznesni ng sanoatda gi ulushi	Kichik biznesni ng qishloq xo'jaligid agi ulushi	Kichik biznesni ng kapital qo'yilma lardagi ulushi	Kichik biznesnin g qurilishda gi ulushi	Kichik biznesnin g chakana savdodag i ulushi	Kichik biznesnin g jami xizmatlard agi ulushi	Kichik biznesni ng yuk tashishda gi ulushi	Kichik biznesni ng yo'lovchi tashishda gi ulushi	Kichik biznesni ng eksportd agi ulushi	Kichik biznesni ng importda gi ulushi	Kichik biznesni ng aholi bandligi dagi ulushi
<i>Shartli belgilar</i>	<i>U</i>	<i>X1</i>	<i>X2</i>	<i>X3</i>	<i>X4</i>	<i>X5</i>	<i>X6</i>	<i>X7</i>	<i>X8</i>	<i>X9</i>	<i>X10</i>	<i>X11</i>
<i>U</i>	<i>1</i>											
<i>X1</i>	<i>0,565541</i>	<i>1</i>										
<i>X2</i>	<i>-0,35632</i>	<i>0,132663</i>	<i>1</i>									
<i>X3</i>	<i>0,752747</i>	<i>0,437878</i>	<i>-0,35892</i>	<i>1</i>								
<i>X4</i>	<i>0,761536</i>	<i>0,25509</i>	<i>-0,61371</i>	<i>0,758108</i>	<i>1</i>							
<i>X5</i>	<i>0,917496</i>	<i>0,742997</i>	<i>-0,40666</i>	<i>0,732525</i>	<i>0,716979</i>	<i>1</i>						
<i>X6</i>	<i>0,540732</i>	<i>0,651581</i>	<i>0,293423</i>	<i>0,297385</i>	<i>0,062514</i>	<i>0,426186</i>	<i>1</i>					
<i>X7</i>	<i>0,862114</i>	<i>0,667425</i>	<i>0,034155</i>	<i>0,67107</i>	<i>0,556096</i>	<i>0,737819</i>	<i>0,749651</i>	<i>1</i>				
<i>X8</i>	<i>0,984384</i>	<i>0,57367</i>	<i>-0,36279</i>	<i>0,772627</i>	<i>0,756797</i>	<i>0,924525</i>	<i>0,474913</i>	<i>0,854632</i>	<i>1</i>			
<i>X9</i>	<i>0,870662</i>	<i>0,72881</i>	<i>-0,22606</i>	<i>0,716199</i>	<i>0,633346</i>	<i>0,835106</i>	<i>0,673237</i>	<i>0,932304</i>	<i>0,870337</i>	<i>1</i>		
<i>X10</i>	<i>0,952088</i>	<i>0,751431</i>	<i>-0,21533</i>	<i>0,67052</i>	<i>0,692799</i>	<i>0,953539</i>	<i>0,56722</i>	<i>0,867375</i>	<i>0,944256</i>	<i>0,875535</i>	<i>1</i>	
<i>X11</i>	<i>0,866441</i>	<i>0,555762</i>	<i>0,03883</i>	<i>0,701115</i>	<i>0,544441</i>	<i>0,690011</i>	<i>0,772671</i>	<i>0,953408</i>	<i>0,830088</i>	<i>0,849983</i>	<i>0,822658</i>	<i>1</i>

<sup>1</sup> АНДИЖОН ВИЛОЯТИ СТАТИСТИКА БОШКАРМАСИ МАЪЛУМОТЛАРИ АСОСИДА МУАЛЛИФ ХИСОБ-КИТОБЛАРИ.

Kichik biznesni iqtisodiy barqarorligining ustuvor yo'nalishini ta'minlashda ishlab chiqarish omillari sifatida mehnat, kapital va texnologiyalarni tahlil etdik. Mehnat omili sifatida kichik biznesda ish bilan band bo'lganlarning ulushi, kapital omili uchun esa sohaga kiritilgan investitsiyalarning hissasi ekzogen kattaliklar sifatida tanlab olindi. Texnologiyalar asosida esa import kattaligini tadqiq etdik. Chunki, kichik biznesning importdagi ulushini tarkibiy tuzilishini o'rganganimizda asosan ishlab chiqarish vositalaridan iboratligini aniqladik. Buning sababi, asosiy vositalarning aksariyat qismi xorijdan olib kelinayotganligi bilan izohlaymiz. Shu bilan birga, kichik biznesda texnologiyalar transferi xorijiy texnologiyalar hisobiga amalga oshmoqda. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar ham xorijiy manbalarga tegishlilagini tadqiqotlarimiz orqali aniqladik.

Yuqoridagilar asosida olingan regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y=0,41 \cdot X_1 + 1,178 \cdot X_2 + 0,945 \cdot X_3 - 52,97 \quad (1)$$

Olingan natijalarni ifodalashicha kichik biznesning investitsiyalardagi ulushini 1 foizga o'zgarishi YaHMdagi ulushini 0,14 foizga, ish bilan bandlardi ulushining 1 foizga o'zgarishi YaHMdagi ulushini 1,178 foizga hamda importdagi ulushining 1 foizga o'zgarishi YaHMdagi ulushini 0,945 foizga o'zgarishiga olib kelmoqda (2-jadval).

Kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini resurslar nuqtai nazaridan tahlil etganimizda, sohaning ishlab chiqarish ko'lami mehnat va texnologiyalarga yuqori bog'liqliknii ifodalamoqda. Bu esa, ushbu soha barqarorligini ta'minlashda yangi ish o'rinalarini yaratuvchi tarmoqlarni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishni talab etadi. Bunda asosiy e'tiborni tadbirkorlik kapitalini shakllantirish va kengaytirishga qaratamiz.

**2-jadval****Andijon viloyatida kichik biznesning YaHMdagi ulushiga ishlab chiqarish omillari ta'sirining regression tahlil natijalari**

Ko'rsatkich nomi	Shartli belgilash	Regressiya koeffitsientlari
<i>Kichik biznesning YaHMdagi ulushi</i>	<i>U</i>	-52,9724
<i>Kichik biznesning kapital qo'yilmalardagi ulushi</i>	<i>X1</i>	0,141355
<i>Kichik biznesning aholi bandligidagi ulushi</i>	<i>X2</i>	1,17804
<i>Kichik biznesning importdagi ulushi</i>	<i>X3</i>	0,945474
<i>Determinatsiya koeffitsienti</i>	<i>R-kvadrat</i>	0,969457
<i>Fisher mezoni ahamiyatliligi</i>	<i>R-qiymati</i>	0,000121
<i>Kuzatishlar soni</i>	<i>2010-2020 yillar</i>	11

Yuqoridagilar qatori kichik biznesning iqtisodiy barqarorligiga soha va tarmoqlarning ta'sirini ham qarab o'tamiz. Olingan natijalarni ifodalashicha, yuqori darajada ta'sir qiluvchi tarmoq qishloq xo'jaligi bo'lmoqda. Ya'ni, kichik biznesning qishloq xo'jaligidagi ulushining 1 foizga o'zgarishi YaHMdagi ulushini 2,3 foizga o'zgarishiga olib kelmoqda. Kichik biznesning chakana savdo, yuk tashish va yo'lovchi tashish kabi tarmoqlardagi ulushining 1 foizga o'zgarishi sezilarsiz, 0,1-0,2 foiz oralig'idagi ta'sirga ega bo'lmoqda (3-jadval).

**3-jadval****Andijon viloyatida kichik biznesning YaHMdagi ulushiga soha va tarmoqlar ta'sirining regression tahlil natijalari**

Ko'rsatkich nomi	Shartli belgilash	Regressiya koeffitsientlari
<i>Kichik biznesning YaHMdagi ulushi</i>	<i>U</i>	-271,155
<i>Kichik biznesning sanoatdagi ulushi</i>	<i>X1</i>	-0,30495
<i>Kichik biznesning qishloq xo'jaligidagi ulushi</i>	<i>X2</i>	2,307753
<i>Kichik biznesning qurilishdagi ulushi</i>	<i>X3</i>	0,301413
<i>Kichik biznesning chakana savdo aylanmasidagi ulushi</i>	<i>X4</i>	0,2824
<i>Kichik biznesning jami xizmatlardagi ulushi</i>	<i>X5</i>	0,482916
<i>Kichik biznesning yuk tashishdagi ulushi</i>	<i>X6</i>	0,109706
<i>Kichik biznesning yo'lovchi tashishdagi ulushi</i>	<i>X7</i>	0,238093
<i>Determinatsiya koeffitsienti</i>	<i>R-kvadrat</i>	0,999436
<i>Fisher mezoni ahamiyatliligi</i>	<i>R-qiymati</i>	0,000205
<i>Kuzatishlar soni</i>	<i>2010-2020 yillar</i>	11

Shunday bo'lsada, kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini ustuvor yo'nalishlarini belgilashda real ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini ham alohida baholaymiz. Chunki, kichik biznesning YaHMDagi ulushi o'zgarishi bilan uning ishlab chiqarish hajmining real qiymati doimo mutanosib bo'lmaydi. Shunday ekan, kichik biznesning ishlab chiqarish hajmini taqqoslama baholar asosidagi o'sishiga investitsiya, mehnat va unumdorlikning ta'sirini tadqiq etamiz.

Dastlab, kichik biznesning ishlab chiqarish hajmining o'sishiga investitsiyaning o'sish sur'ati hamda ish bilan bandlikning o'sish sur'ati ta'sirini aniqladik. Ya'ni, birlamchi bosqichda an'anaviy omillar ta'sirini ko'rib o'tdik. Natijada quyidagi ko'rinishdagi regressiya tenglamasiga ega bo'ldik:

$$Y=0,04 \cdot X_1 + 1,89 \cdot X_2 - 87,76 \quad (2)$$

Ya'ni, ish bilan bandlikning 1 foizga o'sishi kichik biznesning ishlab chiqarish hajmini 1,9(1,89) foizga o'sishini ta'minlamoqda. Investitsiya esa sezilarsiz ta'sirga ega bo'lib, 1 foizli o'zgarishi ishlab chiqarish hajmini 0,04 foizga o'sishini ta'minlamoqda (4-jadval).

#### 4-jadval

##### **Andijon viloyatida kichik biznesning ishlab chiqarish hajmi o'sishiga bog'liq miqdor va samara omillari ta'sirining regression tahlil natijalari**

Ko'rsatkich nomi	Shartli belgilash	Regressiya koeffitsientlari	Regressiya koeffitsientlari
<i>Kichik biznesning ishlab chiqarish hajmining o'sishi</i>	<i>U</i>	-87,76000761	-111,827
<i>Kichik biznesga kiritilgan investitsiyalarning o'sishi</i>	<i>X1</i>	0,04093658	0,000255
<i>Kichik biznesda ish bilan band bo'lganlarning o'sishi</i>	<i>X2</i>	1,889635477	1,10105
<i>Kichik biznesning mehnat unumdorligi darajasini o'sishi</i>	<i>X3</i>		1,015182
<i>Determinatsiya koeffitsienti</i>	<i>R-kvadrat</i>	0,411708	0,999954
<i>Kuzatishlar soni</i>	2010-2020 <i>yillar</i>	11	11

Shu bilan birga, kichik biznesning ishlab chiqarish hajmiga investitsiya, mehnat va unumdorlikning ta'sirini regression tahlil qildik. Olingan natijalarini ifodalashicha, ish bilan banlikning o'sish sur'atining 1 foizga o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining 1,1 foizga, mehnat unumdorligining 1 foizga o'zgarishi esa, 1,02 foizga o'sishini ta'minlamoqda (4-jadval).

$$Y=0,0003 \cdot X_1 + 1,1 \cdot X_2 + 1,02 \cdot X_3 - 111,83 \quad (3)$$

Tadqiqot natijalarini ifodalashicha, mehnat unumdorligi ham yuqori ta'sirga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, barqarorlikni aks ettiruvchi iqtisodiy mezonlardan biri unumdorlik va uning o'zgarishi hisoblanadi. Shu bois, mehnat unumdorligiga ta'sir

etuvchi omillarni ham alohida baholaymiz. Mazkur ko'rsatkichga ishlab chiqarish va investitsiya hajmining o'zgarishi hamda ish bilan bandlikning o'sishi ta'sirini baholaymiz.

### 5-jadval

#### Andijon viloyatida kichik biznesning samaradorligiga bog'liq omillarning regression tahlil natijalari

Ko'rsatkich nomi	Shartli belgilash	Regressiya koeffitsientlari	Regressiya koeffitsientlari
<i>Kichik biznesning mehnat unumdorligini o'sishi</i>	<i>U</i>	7,513488	23,70695
<i>Kichik biznesning ishlab chiqarish hajmini o'sish sur'ati</i>	<i>X1</i>	0,891945	
<i>Kichik biznesga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati</i>	<i>X2</i>	0,01539	0,040073
<i>Kichik biznesda ish bilan band bo'lganlarning o'sishi</i>	<i>X3</i>		0,776792
Determinatsiya koeffitsienti	R-kvadrat	0,973927	0,257212
Kuzatishlar soni	2010-2020 yillar	11	11

Kichik biznesning mehnat unumdorligi ko'rsatkichining o'sish sur'atiga ishlab chiqarish hajmining o'sishi yuqori darajada ta'sir qilmoqda. Ishlab chiqarishning 1 foizga o'zgarishi mehnat unumdorligini 0,89 foizga oshirmoqda, investitsiyaning 1 foizga o'sishi esa, unumdorlikni 0,015 foizga o'sishini ta'minlamoqda (5-jadval).

$$Y=0,89 \cdot X_1 + 0,015 \cdot X_2 + 7,51 \quad (4)$$

Shu bilan birga, mehnat unumdorligiga ishlab chiqarishning an'anaviy omillari ta'sirini ham baholadik. Jumladan, kichik biznesda ish bilan band bo'lganlarning 1 foizga o'sishi mehnat unumdorligini 0,78 foizga, investitsiyaning 1 foizga o'sishi esa, mehnat unumdorligini 0,04 foizga o'sishiga olib kelmoqda (5-jadval).

$$Y=0,04 \cdot X_1 + 0,78 \cdot X_2 + 23,7 \quad (5)$$

Umumiyl holda, kichik biznesning barqaror rivojlanishiga ishlab chiqarish omillaridan mehnat yuqori ta'sirga ega bo'lmoqda. Shuningdek, tarmoqlarda esa qishloq xo'jaligi kuchli ta'sirni ifodalamoqda. Demak, viloyatda kichik biznesning barqarorligini ta'minlash uchun birinchi navbatda qolgan soha va tarmoqlarning ta'sirini oshirish lozim. Buning uchun ulardagi ish bilan bandlikni o'sishini ta'minlashimiz talab qilinadi. Mazkur jarayonni ta'minlash uchun investitsiyalarning ishlab chiqarish ko'lamidagi ulushini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Jumladan, asosiy fondlarning aktiv qismini oshirishga, ularning uzoq muddatli turini kengaytirish zarur.

Natijada, qolgan sohalardagi ish bilan bandlik o'sib, ularning kapital intensivlik darajasi ortadi va bu unumdorlikning o'sishiga, umumiy holda esa, kichik biznesning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanishiga olib keladi.

### Xulosa

Andijon viloyatida kichik biznesning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq izlanishlar asosida olingan natijalarni ifodalashicha, ishlab chiqarish omillaridan ishchi kuchi, tarmoqlardan esa, qishloq xo'jaligi yuqori ta'sirga ega. Bu esa, viloyatda kichik biznesning rivojlanishida ekstensiv xususiyatlar ustuvor ekanligidan dalolat beradi. Mazkur masalani ijobjiy hal etishda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra qishloq xo'jaligini qayta ishlovchi sanoatni kengayirish lozim. Buning natijasida sohada nafaqat ish bilan bandlik darajasi balki, kapital darajasi ham o'sadi. Shuningdek, sanoatda samaradorlik mezonlari boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqoriligi bois, umumiy holda mazkur ko'rsatkichning ijobjiy jihatlari ta'minlanadi. Natijada, aholi bandligi ortib, daromadlari o'sadi, tadbirkorlik kapitali kengayadi va oxir-oqibat kichik biznesning investitsiya salohiyati o'sadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Andijon viloyati boshqarmasi statistik ma'lumotlari
2. Gafurov Kichik biznesni davlattomonidan tartibgasolishning iqtisodiy mexanizmiarini takomillashtirish. Avtoreferat. iqt.fan.dok. -T.: 96-b.
3. Murodova N. Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Avt....iqt.fan.dok.-T.: 2016. 107-b.
4. Shermuxamedov B., Mirvalieva M. Aholini ish bilan band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, -2018-yil.
5. Qurbonov J. (2022). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya omilining ishchi kuchidan foydalanishga ta'siri. - Ta'lim, fan va innovatsiyalar jurnal.
6. Suyunov A., Qurbonov J. (2021). Korrupsiyaning xususiy korxonalar faoliyatiga ta'siri. - ResearchGate.
7. Davlat statistika qo'mitasi (2023). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.
8. Halilov M. (2021). Tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga ta'siri. - Iqtisodiyot va tadbirkorlik jurnali.

